

Mirsoliyeva Durdona

*O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat*

*Instituti*

*Farg'ona mintaqaviy filiali*

*Qo'g'irchoq teatr aktyorligi*

*3-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Mamatqulov Bekzod*

**Annotatsiya:** *Maqolada teatr tarixi, kelib chiqishi va rivojlanishi haqida so'z yuritiladi. Teatr so'zining ma'nosi haqida, yurtimizga kirib kelishi va rivojlanishi, uning birinchi aktyorlari va tarixi haqida gap boradi. Teatr o'zi qanday san'at, janrlari, umuman olganda ko'plab savollarning ko'plab javoblari haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *san'at, ba'zan, teatr, tomosha, bino, janr, sahna, aktyor, orqali, ijro, uzatuvchi, vosita, pyesa, muhim, ajralmas, me'morlik, zamin, professional, drama, yangi, mustaqil, opera, asr, kitob, muqaddas, Avesto, kulgu, qayg'u, ma'lumot, poytaxt, nufuzli, Samarqand, an'anaviy, asosiy, xususiyatlar, faoliyat, sozanda, qo'g'irchoq, Navoiy, balet, davlat, milliy, hayot, ajdodlarimiz, allomalar, shoirlar.*

Teatr o'zi nima?

Uning kelib chiqishi qayerdan va asl ma'nosi nima?

Savollar juda ham ko'p. Teatr deganda hamma birdek tushunadi, ya'ni tomoshabinlar. Ularning nazarida teatr bu spektakl yoki bir boshqa sahnada tomoshabin uchun qo'yiladigan bir tomoshadek go'yo. Aslida unday emas. Teatrning o'ziga yarasha bir boshqa o'rni bor. Teatr bu o'zgacha bir muqaddas manzildir. U yerda hamma narsa bo'ladi, kulgu, qayg'u, dard, alam, iztirob, quvonch, baxt, hamma-hammasi mujassam bo'ladi. Tomoshabinni bir quvontirib so'ngra, bir dam sukutga ko'mib, chuqur o'yga ham tondirib qo'ya oladi bu teatr deganlari. Uning kelib chiqishi, aslida nima ekanligi va nima ma'noni o'zida mujassam etganligi haqida so'z yuritimiz.

Teatr yunoncha "theatron" - "tomoshagoh" degan ma'noni anglatadi. Cheklangan joyda bir yoki bir necha aktyorlar ijro etadigan sahna ko'rinishi orqali tomoshabinga fikr uzatuvchi san'at janridir. Ba'zan teatr tomoshalari o'tkaziladigan binolarni ham teatr deb atashadi (aslida ularni teatr binosi deb atash o'rinli).

Teatr — san'at turi; uning o'ziga xos ifoda vositasi - aktyorning omma oldidagi o'yini jarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqeadir. Teatr san'atida ham boshqa san'atlarda bo'lganidek, xalq hayoti, tarixi, dunyo qarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, ma'naviyati, madaniyati bilan bog'liq holda o'zgarib, takomillashib boradi. Teatr asosida og'zaki yoki yozma dramaturgiya yotadi.

Teatr sintetik san'at bo'lib, jamiyat hayotida, tomoshabinlarning ma'naviy va estetik tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san'at, raqs, me'morlik

ajralmas birlikni tashkil etadi. Teatrning muhim vositalaridan biri sahna nutqidir. Aktyor qahramonning pyesadagi soʻzlarini oʻzlashtirib olar ekan, qahramon qiyofasida, holatlarda turib uning nutqiy tavsifini yaratadi, boshqa personajlar bilan muloqotga kirishadi. Sahna nutqi harakterlarning ochilishida, asar mazmuni, konfliktning yoritilishida muhim oʻrin tutadi. Sahna asarlarining yaratilishida teatr rassomligi (ssenografiya)ning hissasi katta. Rassom asar mazmuni va rejissyor yechimidan kelib chiqib, dekoratsiya yaratadi. Teatrda musiqaning ham oʻrni katta, tomosha turi va janriga bogʻliq holda u turli vazifani bajaradi: dramatik spektakllarda yordamchi vosita boʻlsa, operetta, musiqali dramada soʻz bilan barobar huquqga ega, opera va baletda esa hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Teatr sanʼati uzoq tarixga ega boʻlib, uning asosiy unsurlari (boshqa qiyofaga kirish, dialog, toʻqnashuv kabi) insoniyatning ibtidoiy davrlarida ovchilik, mehnat va liniy marosim, bayramlar bilan, totemizm, animizm kabi ibtidoiy dunyoqarash va ajdodlarning ruhlariga sigʻinish bilan bogʻliq holda shakllangan. Yunoniston, Hindiston, Turonda mil. avv. V asrdayoq Teatr jamiyat hayotida muhim oʻrin tutgan. Hindistonda teatr sanskrit teatri, xalq teatri shakllarida hamda "Mahobhorat" va "Ramayana" dostonlari bilan bogʻliq holda rivojlangan; dramaturgiya va sahna sanʼati haqida "Natyashastra" nomli risola yaratilgan. Keyinroq teatr Yaqin Sharq va Rimga ham yoyildi. Ayniqsa, Rimda teatrning yangi shakl va turlari yaratildi. Gʻarbiy Yevropada teatr sanʼatining dastlabki namunalari sayyor aktyorlar jonglyorlar ijodida, Rossiyada skomoroxlar faoliyatida yuzaga kelgan. Uygʻonish davrida vujudga kelgan drama yangi shakldagi professional teatrning shakllanishiga zamin yaratdi. XVI asrdan opera, XVIII asr oʻrtalaridan balet, XIX asr oʻrtalaridan "operetta" mustaqil teatr turi sifatida rivojlana boshladi. Teatrning keyingi taraqqiyoti klassitsizmning keng yoyilishi bilan bogʻliq. XVIII asr da maʼrifatchilik oqimidagi teatr taraqqiy etdi. Asta-sekin realistik tendensiya kuchaydi. Ayniqsa, K. Goltsoni, G. Lessing, P. Bomarshe, F. Shiller ijodida realizm yorqin namoyon boʻldi. XVIII asrning oxirlariga kelib, drama, melodrama, vodevillarda satirik yoʻnalishning yuzaga kelishi teatrda demokratik asosning kuchayishiga sabab boʻldi. Teatr gʻoyaviy va badiiy kurashlar maydoniga aylandi.

XIX asrning 1-yarmida vujudga kelgan romantik yoʻnalish teatrda gumanistik ideallar va koʻp hollarda xayoliy orzularning yoritilishiga olib keldi. Dramada taqlidgoʻylikdan iborat klassitsizmga qarshi, oʻziga xos milliylik, xalqchilik, tarixiylik va ijtimoiy adolat uchun kurash ohanglari keng quloq yoydi. XIX asr oxirlaridan teatrni isloh qilishning yangi davri boshlandi. Teatr badiiy adabiyot (proza, poeziya), yangi drama (A. Chexov, G. Ibsen, B. Shou va boshqalar) bilan yaqinlashdi. XIX asr oxirlarida XX asr boshlarida teatrda, aktyorlik sanʼatida yangi taʼlim uslubi Stanislavskiy sistemasini qoʻllash boshlandi. 20yillarda V. Meyerxold, V. Tairov, V. Vaxtangovlarning rej.lik faoliyati teatrning rivojiga katta hissa boʻlib qoʻshildi. XX asr oʻrtalarida Gʻarb rejissurasi va sahna sanʼatiga B. Brextning ijodiy uslubi katta taʼsir koʻrsatdi. Zamonaviy teatr dunyo teatrining demokratik, xalqchil anʼanalarini muttasil oʻzlashtirib borishi, sahnaviy talqinlarning rangbarangligi bilan ajralib turadi.

Oʻzbekiston hududida anʼanaviy teatr juda qadimiy va boydir tarixga egadir. Uning kurtaklari ibtidoiy jamoa davridayoq ov va boshqa mehnat jarayoni aks etgan taqdidiy raqslar, jangovar va xalq oʻyinlari, tabiat kuchlariga topinish oqibatida yuzaga kelgan marosimlar shaklda namoyon boʻlgan. Mil. avv. VII–VI-asrlardayoq Turonda zardushtiylik va uning

muqaddas kitoblar to'plami – Avesto bilan bog'liq 2 toifa – kulgili va qayg'uli tomoshalari shakllangan. Yunon – Baqtriya podsholigi davrida Oyxonim, Niso, Shahri G'ulg'ulada maxsus teatrlar bo'lib, ularda Yevripidning "Alkesta", "Ippolit" kabi tragediyalari ko'rsatilgani ma'lum. Mil. avv. I asrdan mil. IV asrgacha Kushon davlatida Budda dini bilan bog'liq turli teatrlashgan tomoshalar mavjud bo'lgan. Ayritom ibodatxonasi peshtoqidagi cholg'uchi qizlarning tasvirlari shuni ko'rsatadi. Asta-sekin Turon teatr san'ati diniy marosimlar qobig'idan chiqib, dunyoviy mazmun kasb etadi – inson hayoti, ijtimoiy munosabatlarni tasvirlashga e'tibor kuchayadi. VI–VII-asrlar Turon mulkidan chiqqan cholg'uchilar, aktyor va raqqosalar Buyuk ipak yo'li orqali qo'shni yurtlarga ijodiy safar qiladilar. IX–XII-asrlarda xalq bayramlari, marosimlari, urf-odatlar va ular bilan bog'liq tomoshalar tiklanibgina qolmay, aholi orasida keng tarqaldi. Masxara va taklid Teatr rivojlandi. Amir Temur davlati (XIV– XV-asrlar)da Teatr san'atida keskin yuksalish ro'y berdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Klavixolarning ma'lumotlaricha, bu davrda poytaxt – Samarqandda va boshqa nufuzli shaharlarda teatrlashgan tomoshalar uyushtirilgan. An'anaviy teatr va boshqa san'at tomoshalari, ayniqsa, Mirzo Ulug'bek davrida (1394–1449) Movarounnahrda, Husayn Boyqaro davrida (1469– 1506) Xurosonda taraqqiy topdi. G'iyos masxara, Xoja Dexdor, Abdulla Devona, Abdulvose' Munshi, Sayd Badr kabi teatr san'atining atoqli namoyandalari faoliyat ko'rsatgan. An'anaviy teatrning kulgili turlari (masxara, taqlid, zarofat), qo'g'irchoq o'yin (chodir jamol, chodir xayol, fonus xayol) badiiy tomosha tizimi sifatida tashkil topdi.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida teatrning asosiy turlari saklanib, repertuar va ijro uslubida o'ziga xos xususiyatlar rivojlandi. Shaharlarda ijrochi san'atkorlarning kasabai sozanda (mextarlik) degan uyushmalarining faoliyati kuchaydi. Xorazmda "Xatarli o'yin", "To'kma" tomoshalari keng yoyildi. Farg'ona vodiysi va Toshkentda qiziqchilik va askiya taraqqiy etdi. XIX asrning 2-yarmida Qo'qonda Zokir Eshon boshliq 30 ga yaqin qiziqchilar to'dasi, Buxoroda Tula masxara boshliq 20 ga yaqin masxarabozlar to'dasi shuxrat qozondi.

Keyinchalik o'zbek madaniyatining ilg'or namoyandalari (Furqat, Behbudiy, Avloniy va boshqalar) rus, tatar va ozarbaijon teatr truppalari tomoshalariga qiziqish bilan qarab, mahalliy ziyolilarni ulardan o'rganishga chaqirdilar. Shu tarzda yangi milliy teatr yaratish harakati yuzaga keddi. 1914-yil Samarqand (15 yanvar) va Toshkent (27 fevral) da "Padarkush" dramasi sahnalashtirish bilan yangi o'zbek teatri o'z faoliyatini boshlaydi. Ayniqsa, A. Avloniy rahbarligida "Turon" teatrining 1915-yil O'zbekiston shaharlariga qilgan ijodiy safarining ahamiyati katta bo'ldi. 1916-yil Hamza Qo'qonda teatr tuzdi. Birin-ketin Andijon (1919), Xiva (1922), Buxoro (1922)da teatrlar tashkil qilindi. 1918-yildan Mannon Uyg'ur "Turon" teatri (hozirgi O'zbek milliy akademik drama teatri)ga rahbarlik qilib, uning professional teatrga aylanishida, repertuarini tuzish, ijro uslubini yaratishda muhim rol o'ynadi. Teatrning birinchi bo'g'in aktyor va rejissyorlari 1924– 27 yillar Moskvada O'zbek Maorif uyi qoshida ochilgan dramastudiyada tahsil olishgan. 20-yillar so'ngida Rus yosh tomoshabinlar Teatri (1928), O'zbek yosh tomoshabinlar Teatri (1929) tashkil topdi. Keyinroq Namangan (1931), Qashqadaryo (1932), Surxondaryo (1935) viloyati teatrlari, o'nlab tuman va shahar teatrlari yuzaga keldi. Toshkent va Samarqandda Davlat rus drama teatri (1934, 1938). Respublika qo'g'irchoq teatri (1939). Navoiy nomidagi davlat opera va

balet teatri (1939) o‘z faoliyatini boshladi, shu yili Davlat komediya teatri tashkil bo‘ldi va u bir yil o‘tib Mukimiy nomidagi Respublika musiqali drama va komediya teatriga aylantirildi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Moskva, Leningrad, Kiyev, Xarkov shaharlaridan ko‘chib kelgan teatrlar mamlakatimiz shaharlarida o‘z faoliyatini olib bordi. 50–60yillarda Hamza nomidagi akademik drama teatri va boshqa teatrlarda turli mavzu, sermazmun, ijtimoiy-psixologik, maishiy va falsafiy, rangbarang uslubda spektakllar sahnalashtirildi. 1968-yil "Yosh gvardiya" teatri (hozirgi Abror Hidoyatov nomidagi O‘zbek davlat drama teatri) tashkil qilindi.

70–80yillar teatrdagi ziddiyatli davr bo‘ldi; bir tomondan, milliy an‘analarga e‘tibor kuchaygan bo‘lsa, ikkinchidan, dabdababozlik, hayotni xaspo‘shlab ko‘rsatish avj oldi. 1976-yil "Ilhom" teatrstudiyasi ish boshladi. 1986-yil Respublika Satira teatri tashkil topdi. 80yillarning 2-yarmida hayotni haqqoniy aks ettirish, janrlar rang-barangligi, tomoshaviylikka intilish mayllari yuzaga kelib, asta-sekin kuchayib bordi. Bu davrda Abror Hidoyatov nomidagi teatr yetakchi o‘ringa chiqib oldi.

O‘zbekiston mustaqil davlat deb e‘lon qilingach, o‘zbek Teatri hayotida ham yangi davr boshlandi. Istiklol tufayli milliy merosga tayanib ijod qilish, milliy qadriyatlar, an‘analarni tiklashga intilish jiddiy tuye oldi. Bu davrda o‘zbek Teatrida quyidagi ilg‘or tendensiyalar, ijodiy izlanishlar ko‘zga tashlanadi: birinchidan, Teatrlar repertuarida tarixiy mavzuning salmog‘i oshdi. Buyuk ajdodlarimiz – allomalar, shoirlar, davlat arboblari, lashkarboshilarning hayoti va taraqqiyot uchun kurashini yorituvchi o‘nlab sahna asarlari yaratildi. Sahnalarda sho‘rolar davrida hatto tilga olish man etilgan Bahouddin Naqshband, Hakim at-Termiziy, Imom al-Buxoriy kabi allomalar, "Avesto" kitobi asosida Zardushtiy hayotini yorituvchi sag‘na asarlari vujudga kelib, davrimiz tomoshabinlari ma‘naviyatini boyitdi, tarixiy, diniy e‘tiqodga nisbatan qarashlarni o‘zgartirdi. Ayniqsa, Amir Temur va temuriylar haqida yaratilgan 20 ga yaqin sahna asarlari ma‘naviy va madaniy hayotimizda katta voqea bo‘ldi. Ikkinchidan, zamonaviy o‘zbek Teatrida tasavvuf bilan bog‘liq "Muqabbat sultoni", "Mashrab" (Milliy teatr), "Xitoy malikasining siri" (rus teatri), "Umar Xayyom", "Ato etilgan muhabbat tariqati" (O‘zbekiston yoshlar teatri), "Na falakman, na farishta" (Muqimiy teatri), "Shayh san‘on", "Raqsu samo" ("Eski masjid" teatr studiyasi) kabi spektakllar Teatrlarimizning eng murakkab mavzularga dadil qo‘l urayotganlari, yangi manbalarni ochayotganlaridan dalolatdir. Shu yo‘nalishda Alisher Navoiy asarlarini Teatr sahnasida yangicha talqin etish boshlandi. Uchinchidan, jahon va milliy mumtoz dramaturgiya namunalari zamonaviy talqin va vositalarda sahnalashtirish boshlandi. Navoiy, Shekspir, Molyer, Ayniy, Behbudiy, Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon, Avloniy, G‘afur G‘ulom asarlarining sahnaviy talqinlari shundan guvohlik beradi. To‘rtinchidan, Teatrlarda ilgari qoloqlik belgisi sifatida qarab kelingan etnografiya va folklor manbalari vositalaridan foydalanish butun bir uslubiy yo‘nalish sifatida ko‘zga yaqqol tashlanib, sahna san‘atining milliy o‘ziga xosligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. "Alpomish" qahramonlik dostoni asosida poytaxt va viloyat Teatrlari sahnalarida yaratilgan 10 ga yaqin spektakllar ham bu yo‘nalishning istiqbolidan nishonadir. Beshinchidan, dramaturgiya va Teatrdagi zamonaviy mavzularda asarlar yaratilib, sahnalashtirish yildan yilga sezilarli tuye olib bormoqda. Zamonaviy mavzular ko‘proq

melodrama, komediya, tragikomediya janrlari doirasida ishlanmoqda. Ayniqsa, maishiyaxloqiy komediyalar Teatrlar repertuaridan keng o'rin egalladi.

Mustaqillik yillarida Farg'ona, Xiva, Qarshi, Namangan, Termiz sh.larida qo'g'irchoq Teatrlari ish boshladi. Abbos Bakirov nomidagi jamoatchilik asosida ishlab kelayotgan yoshlar teatri davlat tasarrufiga olinib, Andijon bolalar va yoshlar teatri ga aylantirildi (1990).

O'zbekistonda o'tkazilgan "Sharq va G'arb" Teatr san'ati festivali, "Xumo" xalqaro yoshlar teatrlari festivali, "Navro'z", "Andijon bahori" respublika Teatr festivallari, Germaniyaning "Ander Rur" teatri bilan "Muloqot" teatri studiyasi hamkorligida tuzilgan "Ipak yo'li – teatr sayohati" loyihasi asosida o'tkazilayotgan ikki tomonlama anjumanlar, qo'g'irchoq Teatrlari festivallari Teatr san'atining yangi ijtimoiy sharoitda rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda. O'zbek teatri jamoalari dunyodagi bir qator mamlakatlarda ijodiy safarda bo'lib, o'zbek Teatr san'ati yutuqlarini namoyish etishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 26 martda e'lon qilingan "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni va O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining shu asosda qabul qilgan "O'zbekteatr" ijodiyishlab chiqarish. birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori Teatr san'ati strategiyasini belgilab berdi. Shu asosda "O'zbekteatr" ijodiyishlab chiqarish. birlashmasi, uning qoshida "Atrmadad" jamg'armasi, Teatr ijodkorlari uyushmasi tuzildi. "Teatr" jurnali nashr etila boshladi. Muntazam ravishda turli seminar va festivallar o'tkazilmoqda.

Davlatlararo shartnomalarga muvofiq xorijiy mamlakatlardagi ijodiy tashkilotlar, xalkaro birlashmalar bilan aloqalar o'rnatilmoqda Amerikalik rejissyor Devid Kaplan, britaniyalik Maykl Berkut va boshqa o'zbek teatrida, B. Yo'ldoshev Fransiyada, N. Abdurahmonov Isroilda, M. Yusupov AQShda asarlar sahnalashtirdilar. Hamza teatri ga eski bino o'rniga zamonaviy muhtasham bino qurib berildi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 21 sentyabrda e'lon qilingan maxsus farmoni bilan ushbu teatrga "Milliy teatr" maqomi berildi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "Teatr tarixi"(Sotimboy Tursunboyev)
2. "Qo'g'irchoq teatr tarixi" (M. Qodirov S. Qodirova)
3. "Qo'g'irchoq boshqarish asoslari" (D.D.Abdullayev, I.D.Usmanova)

#### **FOYDALANILGAN WEB SAYTLAR:**

1. Vikipediya
2. Ziyouz.com sayti
3. Shosh.uz sayti
4. Saviya.uz sayti
5. Qomus.info sayti